

6-7 YOSHDAGI BOLALARNING TADQIQIY-TAJRIBA MALAKALARINI SHAKILLANTIRISHNING IJOBIY AHAMIYATI

Igamberdieva Aziza Abdurashitovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxasisilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 13-00-08 maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 3-bosqich tayanch doktoranti

[**https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.097**](https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.097)

Annottasiya: Mazkur maqolada 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyati orqali bilish jarayonlari rivojlanishi, bolalarda atrof-olamga bo'lgan qiziqishlari, savollariga ilmiylik, tizimliylik tamoyilliga asoslangan holda yondashilganligi, erkin va mantiqiy fikrlash faolligi, maktabga sifatli tayyorlash va tajriba-sinov natijalarining ijobiliyah tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabga tayyorlov guruhi, tadqiqot, tajriba, malaka, shakillantirish, mantiqiy fikrlash, yondashuv, atrof-olam, o'quv dastur, ijobiliyah natija, samarali metodlar, texnologiya, tamoyil.

ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ

Igamberdieva Aziza Abdurashitovna

Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных учреждений, 13.00.08 - Докторант III степени специальности «Теории и методики дошкольного образования»

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие познавательных процессов детей 6-7 лет посредством исследовательско-экспериментальной деятельности, интереса детей к окружающему, подхода к своим вопросам на основе принципа научности и системности, свободного и логического мышления, качественная подготовка к школе и освещен положительный анализ результатов экспериментально-испытательных работ.

Ключевые слова: подготовительная группа, исследование, опыт, компетентность, формирование, логическое мышление, подход, окружающая среда, учебная программа, положительный результат, эффективные методы, технология, принцип.

THE POSITIVE SIGNIFICANCE OF FORMING RESEARCH-EXPERIMENTAL SKILLS OF 6-7-YEAR-OLD CHILDREN

Igamberdieva Aziza

Institute of Retraining and Advanced Training of Managers and Specialists of Preschool Education Institutions, 3rd year basic doctoral student, majoring in Theory and Methods of Preschool Education and Training.

Annotation: In this article, the development of cognitive processes of 6-7-year-old children through research-experimental activities, children's interest in the environment, approaching their questions based on the principle of scientificity and systematicity, free and logical thinking activity, quality preparation for school and positive analysis of experimental-test results illuminated.

Key words: Preschool group, research, experience, competence, formation, logical thinking, approach, environment, curriculum, positive outcome, effective methods, technology, principle.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi, maktabgacha yosh bolalarning ta'lim va tarbiya jarayoni tashkil etishda bir qancha me'yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312сон Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son Qarori va boshqa bir qancha tizimga oid hujjatlar asos bo'la oladi. [1, 2,3]

Maktabgacha yosh davrda bola dunyoni anglashga, barcha savollariga javob topishga bo'lgan ehtiyojlari

oshadi. Ayni shu davrda maktabgacha 6-7 yosh bolalar o'yin orqali faoliyati tadqiqiy-tajribalarni o'tkazishlari katta ijobjiy natijalarini beradi. Bolalar bir vaqtini o'zida o'yin o'ynaydilar va tajribalar o'tkazish orqali atrof-olamni anglaydilar. Maktabgacha 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakillantirishda bir qancha omillar ta'sir etadi. Xususan, pedagogik sharoit, pedagogik texnologiyalar, pedagogning kasbiy va shaxsiy kompetensiyasi va hokazo.

Har qanday bola tabiatan tadqiqotchi bo'lib, "Tajriba – tadqiqot" faoliyati esa bolaning eng qiziqqan faoliyat turlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishda, intellektual anglash, elementar matematik malakalarini rivojlantirishda, tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyatda qiziqarli tajribalar orqali bolalarni fanga qiziqtirish ijobjiy samarani beradi. Tadqiqot faoliyati maktabgacha yoshdagagi bolaning atrofdagi dunyoni tushunishdagi sub'yektiv pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi va shu bilan maktabga tayyorligini ta'minlaydi.

Tajribalar-bolalarning eng yaxshi ko'rgan va qiziqqan faoliyat turlaridan biri bo'lib, bu jarayonda suhbatlar, kuzatuvlar, chambarchas bo'lgan holda tafakkurning tahlil qilish, umumlashtirib xulosa chiqarish, taqqoslashkabi jarayonlarni rivojlantirishga yordam beradi. Tajriba-sinov o'tkazishni bolalar juda yaxshi ko'rishadi. Chunki, bolalarga ko'rgazmali-obrazli tafakkur xos hisoblanadi, shuning uchun tajriba-sinovlar boshqa metodlarga qaraganda aynan maktabgacha yoshdagagi bolalarning shu yosh xususiyatlari muvofiqdir. Maktabgacha yoshda tajriba-sinovlar yetakchi faoliyat bo'lib, bir yoshdan uch yoshgacha-dunyoni o'rganishning deyarli yagona usuli hisoblanadi.[5]

Bolalar tadqiqotchiligi-maktabgacha yoshdagagi bolalarning bilish jarayonini rivojlantirish metodlaridan biri hisoblanadi. Tajriba-tadqiqotchilik faoliyati barcha faoliyat turlari va tarbiyaning barcha jihatlarini birlashtiradi, kuzatuv, aql-idrok, dunyoni bilishga intilish, bilish qobilyatlari, kashfiyot qilish, murakkab vaziyatlarda no'anaviy yechimlar toppish malakalarini rivojlantiradi va ijodkor shaxs tarbiyalaydi. Tadqiqotchilik ta'limning asosiy xususiyati-bolalarning tadqiqiy va ijodiy xarakterga ega bo'lgan ta'limiy ishlarini faollashtirish va shu tariqa ularning tadqiqiy bilish faoliyatlarini tashkil etish tashabbuslarini tarbiyalanuvchilarning o'zlariga berishdan iborat. Maktabgacha yoshdagagi bolalar tug'ma tadqiqotchidirlar. Mazkur yoshda bolalarning savol berishi faollashadi, atrof-olam, hashorotlar va turli xil vaziyat, hodisalarga qiziqadilar. Ammo ko'p bolalar bir oz ulg'aygan sayin asta-sekin fanga qiziqishlarini yo'qotadilar. Biz kattalarning asosiy vazifalarimizdan biri shundan iboratki, bolajonlarimizni tabiat bilan tanishtirishda xavfsiz, maqsadli, ilm-fan bilan doimiy ravishda bog'likligini sodda, qiziqarli tajriba faoliyatlarini orqali tushuntirishdan iborat.

Tadqiqot – bu kognitiv (bilish) faoliyat jarayoni natijasi bo'lib, chuqur o'rganish, har qanday muammo yoki hodisaning obyektivligi, isboti, aniqligi bilan ajralib turadigan, muhim natijalarga erishishga qaratilgan, qayta ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi. Tadqiqot faoliyatida ma'lum harakatlar amalga oshirilib, tadqiqotchining hatti-harakatlarining umumiyo ko'rinishi yuzaga keladi. Tadqiqot xatti-harakatlarining asosi izlanuvchanlik faoliyatiga bo'lgan ehtiyojdir. Demak, tadqiqot faoliyati deganda tadqiqotchilik xulq-atvoriga asoslangan qidiruv faoliyatini mexanizmlari, harakat natijasida shakllanadigan intellektual-ijodiy faoliyatning alohida turi tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan mustaqil tadqiqiy-tajriba faoliyatini tashkil qilishda quydagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

Tadqiqiy-tajriba faoliyatini olib borishda yosh kesimining muhimligini anglash va unga ko'ra tajriba faoliyatining murakkablik darajasini belgilash;

Maktabgacha yoshdagagi bolalani har bir tajriba faoliyati jarayonidan oldin xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish;

Bolalarga tajriba algoritmini izohlash;

Pedagogik sharoit va didaktik taminot asosida bolalarga mustaqil ravishda tajriba faoliyatini olib borishga imkon yaratish;

Har bir bolaning individligini inobatga olgan holda ularning erkin va mustaqil fikri, g'oyalari xurmat qilish va inobatga ilinishini ta'minlash.

Maktabgacha yosh bolaning tajriba faoliyati jarayonida, yakunida har qanday erishgan natijasidan qatiyy nazar ularni rag'batlash.

Maktabgacha yoshdagagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari

kommunikativ;

ijtimoiy;

shaxsiy («men» kontsepsiyasini qurish);

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o'qish va o'rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Harakat va o'zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o'rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagagi yangi ob'yektlarni o'rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o'yin va o'zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar

va tajriba o'tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o'zlarining kashfiyotlari bilan o'rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Bolalar muammoni hal qilishga e'tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo'yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rganishdan zavqlanishlari va o'rganganlarini baham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyatidan erishiladigan natijalar quyidagi sohalar kesimi uyg'unligida amalga oshiriladi:

- jismoni rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakillanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonlarining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati quyidagi "Bilish jarayonlarining rivojlanishi" kichik sohasi kesimida yoritiladi:

- intellektual-anglash malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tadqiqiy-bilish va samarali refliksiv faoliyat.[4]

«Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasidagi ta'limga tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga katta qiziqish bildiradi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil topadi va qo'llaydi;
- predmetlar, voqeа-hodisalar va holatlар o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, sanashni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematika hisoblarini amalga oshiradi;
- atrof-muhitni asrab-avaylash munosabatini namoyon etadi.

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy- bilish faoliyatini rivojlantirish shakillariga ko'ra:

- tajriba o'tkazish;
- tadqiqotchilik;
- kolleksiya to'plash;
- loyihalash;
- tadqiqiy-tajriba faoliyatiga oid ekskursiya;

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyatini o'tkazish quyidagi turlarga ajratiladi:

Bizni o'rab turgan har bir narsa –havo, suv, tuproq, o'simliklar hayvonlar-tabiat hisoblanadi.

- jonli tabiat (inson, hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar va hokazo);
- jonsiz tabiat (suv, havo, tog'lar, quyosh, qoyalar va hokazo);
- inson qo'li bilan yaratilgan dunyo (o'yinchoqlar, idishlar, kiyim, poyabzal, transport va hokazo);

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati o'tkaziladigan joyga ko'ra:

- "Fan va tabiat" markazi;
- "Evrika" Tadqiqot laboratoriysi;
- maktabgacha ta'limga tashkiloti hovlisidagi "Bog'dorchilik" maydoni;
- "Susambil" bolalar issiqxonasi;
- "Ko'k terak" qo'riqxonsi.

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati qo'llanish usuliga ko'ra:

- Namoyish usulidagi tajribalar;
- Frontal usulidagi tajribalar.

Namoyish usulidagi tajribalar- tarbiyachi ko'rsatib beradi, bolalar esa bajarish jarayonini kuzatadilar. Tajribalar bu usulda tadqiqot obyekti yagona nusxada bo'lgan taqdirda, bola qo'liga obyektni berish mumkin bo'lmaganda yoki bola uchun xavf tug'dirish ehtimoli bo'lganda qo'llanadi (Masalan; yonib turgan shamni qo'llagan hollarda).

Frontal usulidagi tajribalar- boshqa turdag'i tajribalarga qaraganda, bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq bo'lganligi sababli pedagog bolalarning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratib beradi. Shu bilan birgalikda

pedagog tadqiqot jarayonini to‘liq nazorat qilish , tajriba yakunida kerakli natijalarga erishishlari uchun bolalarni yo‘naltirilishi lozim. [5]

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati bolalar soniga ko‘ra:

- “Fan va tabiat” markaziga jalb etilgan bolalar (5-6ta);
- “Evrika” tadqiqot laboratoriyasida guruhlashgan (16 ta);
- jamoa (butun guruh) holatida.

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati o ‘tkazish sabablariga ko‘ra :

- tasodify;
- rejalashtirilgan;
- bolalarning xohishiga ko‘ra.

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati o ‘tkazish davomiyligiga ko‘ra:

- qisqa (1 ondan)
- uzun (soat, sutka, xaftha, oy, yillar, asr).

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati jarayonida obyektni kuzatishiga ko‘ra:

- bir marta;
- bir necha marta;
- ko‘p marta;
- muntazam.

6-7 yosh bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati o‘tkazilish metod va usullariga ko‘ra:

- og’zaki;
- ko‘rgazmali;
- amaliy;
- lug’at ishi;
- kuzatuv va tahlil;
- visual elektron tajriba faoliyati.

Bolalar faoliyatining ijobjiy motivatsiyasi uchun turli xil qiziqtiruvchi omillar bo‘lishi kerak:

- tashqi qiziqtirish obeyktlari (obyektning yangi va o‘zgachaligi);
- sir, kutilmagan sovg’a;
- maqsadli yordam;
- bilish fursati (nima uchun shunday?);
- tanlov vaziyati;
- muammoli vaziyat.

Maktabgacha yoshdagি bolalar bilan tajriba-tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun pedagoglardan puxta tayyorlarlik ko‘rish talab qilinadi va bu talablarga quydagilar kiradi:

Bolalar yoshini hisobga olgan hold ava mavzuviy rejalashtirish bo‘yicha yaxshi o‘ylangan tajriba va tadqiqot ishlanmalarini ishlab chiqish. Mazmuniga ko‘ra maqsad va vazifalar hamda kutilayotgan natijani aniq belgilash, tanlangan tajribaning tadqiqiy xarakterda bo‘lishi.

Ma’lumotlarni samarali eslab qolish, yodda tutish va qayta tiklashni ta’minlash uchun mnemotexnika va mnemojadvallardan foydalanish. Mnemotexnika miya xotirasining tabiiy mexanizmlaridan foydalangan holda ma’lumotni eslab qolish va yodda tutish jarayonini to‘liq nazorat qilish imkonini beradi.

Tajriba-tadqiqotchilik faoliyat davomida olingan ma’lumotlardan maktabgacha yoshdagи bolalarning boshqa faoliyat turlarida foydalanish.

Tabiat, tabiat hodisalarini, tabiat tovushlari haqidagi ta’limiy filmlardan, qisqa rolliklardan keng foydalanish. Shuningdek, tabiat hodisalarini o‘rganish jarayonida musiqani qo’llash. Masalan, qor, yong’ir, va boshqa tabiat hodisalarini musiqa asarlarini tinglash orqali ham o‘rganish.

Mavzuviy rejaga asoslangan holda tadqiqiy-tajriba faoliyatini elektron darslik orqali o‘zlashtirish.

Tajriba faoliyati jarayoni va xulosalarini “Refleksiv ish varog’i” ga qayd etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g’risida”gi O‘RQ 595-sonli Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PQ-4312-sun Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2707-sun Qarori.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri.

“Tadqiqiy bilish va tajriba-tadqiqotchilik faoliyati” metodik qo‘llanma. G.A. Omonova, G.G. Ismanova,